

DIALEKTOLOGIYA VA OQIRTMA QISHLOG' I SHEVASI

Orolova Dilso'z (UZFIPI talabasi)

Ilmiy rahbar. Maxammadiyeva. D

Tayanch tushunchalar: dialektologiya, sheva, dialekt va lahja

KIRISH

[1] Dialektologiya so'zi yunon tilidan olingan bo'lib, shevalar, dialektlar va lahjalar to'g'risidagi bilim degan ma'noni anglatadi. O'zbek dialektologiyasi o'zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini, uning shakllanish va tarqalish chegaralarini o'rganadi.

Shevalar har bir milliy tilning asosini tashkil etadi, hamda u milliy ma'naviy qadriyatimiz hisoblanadi. Aslida ham ona tili deganda sheva tushunilishi haqiqatga yaqindir. Shuning uchun ham uni asrab-avaylash, qadrlash zarur. Bu haqda yurtboshimiz I.A.Karimovning " Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir.

Sheva- forscha ravish, tarz, yo'sin degan ma'nolarni bildirib, fanda biror tilning o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlari bilan farqlanib turadigan kichik territoriyaga oid qismini anglatadi.

Dialekt- so'zi grekcha bo'lib, sheva degan ma'noni anglatib, (aslida qabila tili demakdir), aksariyat til xususiyatlari o'xshash bo'lgan shevalarni birlashtiradi.

Lahja - arabcha so'z bo'lib, u ham ravish, tarz, yo'sin, sheva ma'nolarini bildiradi. Dialektologik termin sifatida qadimdan o'zbek tilining taraqqiyotiga asos bo'lgan sheva va dialektlarning eng yirik to'dasini anglatadi.

Fonetika o'zgarishlar.

Jo'l (yo'l) - bu so'zda " y" jarangli undoshi "j" til oldi undoshiga o'zgargan. Bu shevada talaffuzning soddalashishi natijasida "y" tovushi "j" tovushiga o'tadi. Bu o'zgarish odatda qulay talaffuz qilish maqsadida yuzaga keladi.

Oxmoy - (oqmoy) "q" jarangsiz undoshi "x" chuqur til orqa undoshiga o'zgaradi. Bu o'zgarish mahalliy shevada ko'p uchraydi, chunki "x" tovushi talaffuzda qulayroq.

Siyir- (sigir) "g" jarangli undoshi "y" til o'rta undoshiga o'zgaradi. Bu o'zgarishda "g" tovushining fonetik ta'siri kamayib, so'z yumshoqroq bo'ladi. Masalan: siyir sut bermayapti (sigir sut bermayapti).

Shibirtki - (supurgi) jarangsiz "s" tovushi ko'pincha yumshoqroq "sh" til oldi undoshiga o'zgaradi. Bu talaffuzdagi qulaylik va shevaga xos xususiyat hisoblanadi. Supurgi - shibirtki. "O" yoki "u" tovushlari mahalliy talaffuzda ba'zan yumshoqroq va nozikroq "i" tovushiga o'tadi. Shupurgi - shipirgi. Shevada ba'zan so'zning talaffuzi davomida bo'g'inlar orasida qulaylik uchun "bir" so'zi qo'shiladi. Shipirgi- shibirtki. Adabiy til shaklidagi "- gi"

qo'shimchasi mahalliy talaffuzda "-tki" shaklini oladi. Bu jarayon hududiy talaffuzga xos fonetik o'zgarish hisoblanadi. Masalan: shibirtkini olib, hovlini supurib qo'y.

Jumronqoziq- (yumronqoziq) so'zining mahalliy shevada "jumronqoziq" shaklini olishi hududiy talaffuz xususiyatlari va fonetik o'zgarishlar bilan bog'liq. "Y" til o'rta undoshi ba'zan jarangli va kuchliroq talaffuz qilinadigan "j" tovushiga o'tadi. Shevaning boshqa xususiyatlaridan farqli ravishda, "qoziq" qismi deyarli o'zgarishsiz qoladi. Natijada so'zning bosh qismi o'zgarib, ikkinchi qismi adabiy shaklda saqlanadi. Yumronqoziq - jumronqoziq.

Darvoza - adabiy tilda ishlatiladigan va umumiy ma'noda "hovli yoki binoga kirish eshigi"ni anglatadi. Bu so'z forscha "dar" (eshik) va "boz" (ochuvchi) qismlaridan kelib chiqqan. "Dorboza" - mahalliy shevada "darvoza" so'zining talaffuzdagi o'zgarishidan hosil bo'lgan shakli.

Buzoq - adabiy tilda ishlatiladigan so'z bo'lib, yosh qoramol bolasini anglatadi. Buzov-"q" jarangsiz undoshi "v" jarangli undoshiga o'zgargan. Masalan: Buzovni yaylovdan haydab kelishdi.

Soch(adabiy tilda) - choch "s" sirg'aluvchi tovushi "ch" qorishiq tovushiga o'zgaradi. Mahalliy shevada yumshoq va jarangdor talaffuz uchun "s" tovushi "ch" tovushiga almashadi. Masalan: chochlaring uzun bo'lsa parvarish qil.

Samon - adabiy tilda ishlatiladigan so'z bo'lib, "pichan" yoki "quruq o't" ma'nosini anglatadi. Bu so'z asosan hayvonlar uchun ozuqa sifatida qo'llaniladigan quritilgan o'simliklarni bildiradi. "Sobon" mahalliy shevada uchraydigan varianti bo'lib, xuddi shu ma'noni anglatadi. Bu talaffuz shevada qulayligi natijasida paydo bo'lgan. Bu so'zda "m" tovushi "b" tovushiga o'zgaradi. Bu hodisa nutq jarayonidagi jarangdor undoshlarning bir-biriga yaqinlashishidan kelib chiqadi. "Samon" so'zi "sobon"ga aylanganda jarangdorlik kuchayadi va so'zning talaffuzi sodda va aniqroq eshitiladi. Masalan: "samon olib kel" shevada "sobon olib kel" tarzida ishlatiladi.

Chuvoq - oftob (adabiy tilda) so'zlari quyoshni anglatadi, lekin ularning ishlatilishi va ma'nolari o'zaro farqlanadi va "chuvoq" so'zi mahalliy shevada, ayniqsa, janubiy hududlarda ishlatiladi va quyoshning kuchli isishini tasvirlash uchun qo'llanadi. "Oftob" so'zi esa adabiy tilda va rasmiy muloqotda keng tarqalgan va umumiy ma'noda quyoshni ifodalaydi.

Hamsiya - so'zi fors - tojik tilidan kelib chiqqan bo'lib, undagi "ham" (birgalik, o'xshashlik) va "siya" qismlaridan tashkil topgan. Bu so'z asosan bir-biriga yaqin yashovchi xonadonlarga nisbatan ishlatiladi.

Shirvoz - mahalliy shevada "hali sutdan ajralmagan qo'zi"ni anglatadi. Lug'atda to'g'ridan-to'g'ri bunday ma'noda uchramasligi mumkin.

To'bal - qashqa bu so'z o'zbek tilining izohli lug'atida "ot yoki mol peshonasidagi oq joy, oq nishona ma'nosida uchraydi.

Qashqadaryo viloyati janubiy hududlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida mujassam etgan noyob nutq shakli hisoblanadi. Bu sheva nafaqat xalqning kundalik hayotidagi aloqa vositasi, balki tarixiy, madaniy va lingvistik merosining ajralmas qismidir. Dehqonobod

tumanining Oqirtma qishlog'i shevasi o'zbek tilining qarluq lahjasiga Oqirtma shevasi orqali qishloq aholisi o'z hayotini va urf- odatlarini ifodalaydi. Bu shevani o'rganish, ularni hujjatlashtirish va kelajak avlodga yetkazib berish muhim vazifadir. Oqirtma qishlog'i hududining shevasini chuqur o'rganish milliy tilning xilma - xilligi va boyligini namoyon etadi. Bu esa mahalliy tilda so'zlashuvchilarni qadrlash va ularning merosini avlodlarga yetkazishda muhim qadamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ashirboyev Samixon " O'zbek dialektologiyasi" Toshkent - 2013
- 2.B. To'ychiyev, B. Hasanov" O'zbek dialektologiyasi" Toshkent - 2004.
- 3.Mahalliy aholi bilan o'tkazilgan og'zaki suhbatlar va kuzatuvchilar (Dehqonobod tumani Oqirtma qishlog'i. 2024).